

PAPER

Turkistonda mahalliy boshqaruv: tarixiy tahlil

Karimov Qahramon Sodiqovich^{1,*}

¹ Qo'qon davlat universiteti dotsenti

* qahramonjob876@gmail.com

Abstract

Taqdim etilgan maqolada Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan Turkiston o'lkasini boshqarishda Davlat tartibi va ma'muriy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolishga qaratilgan chora-tadbirlar mustamlakachilik siyosatining strategik manfaatlari nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil etiladi. Tadqiqotda, ayniqsa, mustamlaka ma'muriyatining mahalliy boshqaruv tizimiga ehtiyotkorlik bilan aralashuvi, mansabdor shaxslarni tayinlash va tasdiqlashning byurokratik mexanizmlari, shuningdek, bu jarayonlar orqali rus ma'muriyatining o'lkadagi hokimiyat vertikalini mustahkamlashga qaratilgan siyosiy-me'yoriy amaliyoti ochib beriladi.

Maqolada mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari (qo'rg'on, volost va qishloq darajasidagi idoralar) faoliyatida mansabdor shaxslarni saylash jarayonlari bo'yicha qator huquqiy buzilishlar va ma'muriy tartibot normalarini cheklovchi amaliyotlar aniqlangani ta'kidlanadi. Ayniqsa, saylovlar vaqtida yirik jamoatchilik guruhlar va manfaatlar to'qnashuvi ishtirokida yuzaga kelgan qonunbuzarliklar, mahalliy aholining norozilik murojaatlari hamda ularning rasmiy ma'muriyat tomonidan qay darajada va qay tarzda ko'rib chiqilgani tarixiy-huquqiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Shu bilan birga, tadqiqotda muallif mustamlaka boshqaruv tizimidagi mansabdorlarni tanlash va tayinlash mexanizmlarining haqiqiy mohiyatini yoritarkan, bu jarayonlar formal jihatdan "jamoatchilik ishtiroki" tamoyiliga asoslangan bo'lsa-da, amalda ular Rossiya imperiyasining kolonial nazoratini kuchaytirish, mahalliy elita va aholining siyosiy ta'sirini cheklash, byurokratik qoidalar orqali ularni rus ma'muriyatiga tobe etish vazifasini bajarganini asoslaydi.

Natijada maqoladagi tahlil Turkistondagi mahalliy ma'muriy idoralar faoliyatidagi huquqiy-me'yoriy muammolar, jamoatchilikning shikoyat tizimi orqali davlat ma'muriyati bilan munosabati, shuningdek, mustamlakachilik sharoitida davlat nazoratining qanday amalga oshirilganini yaqqol yoritib, masalaning tarixshunoslikdagi o'rnini yanada chuqurlashtiradi.

Key words: vakillik demokratiyasi, qozi, ellikboshi, boshqaruv, saylov, muhrdor, jamoatchilik shikoyati.

Kirish

Hozirgi bosqichda mamlakatimizda siyosiy tizimni demokratlashtirish va davlat hokimiyati

Compiled on: December 4, 2025.

Copyright: ©2025 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Environment* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

tarmoqlari o'rtasidagi institutsional muvozanatni ta'minlashga qaratilgan islohotlar jarayonida saylov tizimi alohida strategik ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovini, Oliy Majlis palatalariga saylovlarni hamda respublika miqyosidagi referendumlarni tashkil etish va amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan muhim konstitutsiyaviy institut — O'zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi tashkil etilgan.

Ushbu komissiya o'z faoliyatida demokratik saylov huquqining universal tamoyillariga muvofiq mustaqillik, qonuniylik, kollegiallik, oshkoralik va adolatlilik kabi asosiy prinsiplarga tayanadi. Bular saylov jarayonlarining har qanday tashqi bosimlardan xoli, shaffof, qonuniy va erkin bo'lishini ta'minlashga qaratilgan institutsional kafolatlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, shuningdek viloyat, tuman va shahar deputatlari kengashlariga saylash amaliyoti konstitutsiyada belgilangan vakolat muddatlari asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon mamlakatda davlat hokimiyatini shakllantirishning legitim siyosiy mexanizmi sifatida saylov institutining barqaror faoliyatini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, saylov va referendumlarni o'tkazish jarayonida qonun buzilish holatlarining oldini olish, saylov huquqining daxlsizligini ta'minlash, fuqarolar irodasining erkin va adolatli namoyon bo'lishi uchun aniq huquqiy kafolatlar o'rnatilgan. Xususan, mansabdor shaxslar, siyosiy partiyalar vakillari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari mas'ullari, tashabbuskor guruhlar yoki saylov (referendum) komissiyasi a'zolari tomonidan quyidagi huquqbuzarliklarni sodir etish qonunchilikda jinoiy va ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi:

- ovoz berishning yashirinligini buzish,
- saylov va referendum hujjatlarini qalbakilashtirish,
- imzo varaqalarini soxtalashtirish,
- ovozlarni ataylab noto'g'ri hisoblash va boshqa turdagi qonunbuzarliklar.

Mazkur huquqiy normalar fuqarolar irodasining daxlsizligini ta'minlash, saylov jarayonlarining

manipulyatsiya va soxtalashtirishlardan himoya qilinishi, ayniqsa davlat hokimiyatining legitim manbasi sifatida saylov institutining nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, mamlakatimizda saylov madaniyati, saylov huquqi bo'yicha tarixiy tafakkur va huquqiy ongni rivojlantirish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilmoqda. Bu esa jamiyatda siyosiy ishtirok darajasini oshirish, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi faol subyekt sifatida o'z o'rnini va mas'uliyatini anglashini kuchaytirish, demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida muhim omilga aylanadi[1].

Shu nuqtayi nazardan olib qaranganda, Turkiston general-gubernatorligi hududida xalq qozilari saylovi tartibi, uning amaliy ijrosi va huquqiy-me'yoriy asoslarini o'rganish mustamlakachilik davri mahalliy boshqaruv tarixining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki xalq qozilari — mahalliy musulmon jamoasi uchun huquqni ta'minlovchi, adolatni tiklovchi va shariat me'yorlariga asoslangan huquqiy hakam sifatida faoliyat ko'rsatgan, an'anaviy jamoaviy o'z-o'zini boshqarish tizimining markaziy instituti hisoblanar edi.

Shunday ekan, Rossiya imperiyasi ma'muriy apparati tomonidan mazkur institut faoliyatini tartibga solish, uning saylov jarayonlariga aralashuvi va uni byurokratik nazorat tizimiga moslashtirish amaliyoti Turkistondagi ma'muriy-huquqiy modernizatsiya jarayonlarini tushunishda muhim manba sifatida namoyon bo'ladi.

Ma'lumki, mashhur sharqshunos olim V.V. Bartoldning fikricha, XIX asrda Turkiston o'rta asrlardagi ilmiy-intellektual nufuzini ma'lum darajada yo'qotgan bo'lsa-da, o'lkaning ma'naviy hayotida Buxoro hanz musolmon dunyosidagi yirik diniy-ma'rifiy markazlardan biri sifatida o'z tarixi va shon-shuhratini saqlab qolgan. Ayniqsa, Buxoro amirligidagi madrasalar, ilm markazlari va ulamolalar an'anaviy islomiy ta'lim tizimining uzviy davomchilari sifatida faoliyat yuritgan.

Bartold ta'kidlaganidek, Buxoro nafaqat Turkiston o'lkasi shahar va qishloqlaridan, balki Volga bo'yi, Qozon, Orenburg, Astraxan kabi mintaqalardan ham talabalarni o'ziga jalb eta olgan. Bu holat Buxoroning musulmon olamidagi intellektual salohiyati saqlanib qolganini, uning shariat bilimlari va huquqiy an'analarni

tarqatishdagi nufuzini yanada mustahkamlaganini ko'rsatadi[2].

Shu bilan birga, Turkiston general-gubernatorligida xalq qozilari saylovi aynan Buxorodan tarqalgan huquqiy an'analar ta'sirida amalga oshirilar, mahalliy aholi e'tiqodi va diniy tafakkuri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Shariat qoidalariga tayanadigan qozilik lavozimining Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tizimiga mos tarzda isloh qilinishi esa an'anaviy huquqiy madaniyat va koloniyal ma'muriy siyosat o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlarni ochib berish imkonini beradi.

Qo'qon xonligi davrida ruhoniylar qozikalon sifatida barcha sud ishlarini o'z qo'llari ostida markazlashtirib olganlar. Qozikalonlarni amir va xonlar tayinlar edilar. Ma'rifat, fan va maorifda ham Islom mafkurasi asosiy va yetakchi yo'nalish bo'lib xizmat qilgan[3].

Chor Rossiyasining mustamlakachilik ma'muriyatining muhim huquqiy bo'g'ini sud organlari hisoblangan. Sudlar ikki xil ko'rinishga ega bo'lib, sudlar va xalq sudlaridan tashkil topgan. Ularning birinchisi sof mustamlakachilik shaklida bo'lsa, xalq sudlari shariat asosida ish yurituvchi qozilik idorasi edi. Sudlar hududiy bo'linishga ko'ra, tuman sudlari, xalq palatasi huquqidagi viloyatlar boshqarmalari, dunyoviy masalalar bo'yicha ish yurituvchi sudlar qurultoylari, harbiy sud komissiyalaridan iborat bo'lgan.

1886-yildagi "Nizom"ga ko'ra, mavjud sud tartiblari saqlangan holda unga ayrim o'zgarishlar kiritildi. Tuman sudlari bekor qilindi. O'lkada viloyat sudlari tashkil etildi. Viloyat prokurori va uning yordamchisi muovini, sud tergovchisi lavozimlari joriy etiladi. Imperiya sudida mustamlakachilik tuzumiga qarshi maqsadlarda sodir etilgan "jinoyat"lar ko'rilgan. Uning asosiy vazifasi mahalliy xalq orasidan chiqqan vatanparvarlarning davlat hokimiyatini ag'darish maqsadida harakat qilgan siyosiy "jinoyat"chilik ishlari ustidan hukm chiqarish edi[4].

Rossiya imperiyasi Turkiston o'lkasida davlat tartibini ta'minlash va mustamlakachilik ma'muriy nazoratini mustahkamlash maqsadida mahalliy boshqaruv tizimida mansabdor shaxslarni tayinlash tartibotiga alohida e'tibor qaratgan. Bu siyosat imperiyaning strategik manfaatlarini himoya qilish, mahalliy jamoa rahbarlarini to'liq ma'muriy-

byurokratik nazorat ostiga olish hamda ular orqali aholi ustidan bilvosita hukmronlikni ta'minlashga qaratilgan edi.

Shu bois o'rinli savol tug'iladi: mustamlakachilik ma'muriyati sharoitida mahalliy idoralar mansabdorlarini saylash jarayonida qanday huquqbuzarliklar va salbiy holatlar kuzatilgan? Tarixiy hujjatlar bu masala yuzasidan muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

Shu munosabat bilan quyida ellikboshilar tomonidan harbiy gubernator nomiga yo'llangan murojaat—arz nomasini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Unda saylov jarayonida yuzaga kelgan mojarolar va aholining norozilik holati yorqin aks etgan:

"...Biz, Qurama uyezdi Jaloltepa bo'lusining Bordenko'l ovulidan tubanda qo'l qo'yuvchi ikki ellikboshi ko'p marta iltijo va arz ilab murojaat qilamiz[5]. 1889-yildagi saylovda fuqarolarning umumiy xohishiga ko'ra biylikka Shohnazarbiy Boynazar o'g'li saylangan edi. U ayb va janjallarni adolat bilan hal etib, fuqarolar dillariga mos kelgani uchun, 1882-yilda bo'lgan navbatdagi saylovda ham biz, ovul ahli, Shohnazarbiyni qayta sayladik.

Ammo boshqa ikki ellikboshi qozoq Sog'indiq Nurboy o'g'lini saylashgan. Saylovda ikki tarafning ovozi teng kelgani bois, ushbu bo'lusning barcha ellikboshilarini yig'ib, kengash (siyoz) tarzida takroriy saylov o'tkazildi. Yig'ilgan o'n uch ellikboshidan aksariyat Shohnazarbiy uchun ovoz berdilar va bu haqda hokimiyatga ma'lum qilish uchun muhr bosib, qo'l qo'ydilar.

Ammo boshqa o'n uch ellikboshi bu hujjatni qabul qilmay, o'z nomzodini qo'llab maqol qildilar. Natijada yana tenglik yuzaga keldi.


Shu bois biz, bizga tobe aholi nomidan iltijo qilamizki, Shohnazarbiyni adolat asosida biylik o'rniga o'tqazishni amr qiling. Chunki biz Sog'indiqbiyning biy bo'lishiga rozi emasmiz. Shohnazarbiydan biz hech qachon yomonlik ko'rmaganmiz; ko'p yaxshiligi ma'lum.

Shu sababli ushbu arznomani, o'n uch ellikboshining ma'lumotnomalari bilan birga 17-oktyabr 1883-yilda Boymirza ellikboshi Oxund o'g'li va Mirzo Qodir Bobojon o'g'li tomonidan tasdiqlab yo'llaymiz".

Xulosa

Xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, Turkiston general-gubernatorligi davrida xalq qozilari saylovi jarayoni ko'p qirrali, ziddiyatli va murakkab xarakterga ega bo'lib, unda bir vaqtning o'zida ham ijobiy, ham salbiy tendensiyalar kuzatilgan. Formal jihatdan mahalliy aholi ishtirokida o'tkazilgan saylovlar an'anaviy sud tizimini saqlab qolishga xizmat qilgandek tuyulsa-da, amalda bu jarayon Rossiya imperiyasining mustamlakachilik boshqaruvi manfaatlaridan kelib chiqqan holda tubdan buzib tashlangan edi.

Tarixiy manbalar tahliliga ko'ra, mahalliy ma'muriy tuzilmadagi mansabdor shaxslar tomonidan xizmat vakolatlarini suiste'mol qilish, o'z vakolat doirasidan cheklovsiz chiqib ketish, mansab soxtakorligiga yo'l qo'yish, shaxsiy manfaatlar yo'lida xizmat mavqeyidan foyda olish holatlari ommaviy tus olgan. Mazkur illatlar, eng avvalo, saylov jarayonini adolat mezonlaridan yiroqlashtirgan, qozilik lavozimi uchun zarur bo'lgan ilmiy-diniy saviya, huquqiy bilim va ma'naviy salohiyatni inobatdan chetga surgan.



Aksincha, Rossiya ma'muriyati tomonidan saylov natijalarini tasdiqlashda asosiy mezon sifatida nomzodning mustamlakachilik hukumatiga qay darajada "sadoqatli" ekanligi, uning imperiya tuzumiga qanchalik ishonchli va moyil shaxs sifatida baholanishi ustuvor ahamiyat kasb etgan. Shu bois, ko'p xollarda qozi etib tasdiqlangan shaxslar aholining haqiqiy ishonchini qozongan zotlar emas, balki mustamlaka ma'muriyati uchun siyosiy jihatdan qulay raqamlar bo'lgan.

Qozilar tomonidan salbiy xatti-harakatlar, manfaatparastlik va adolatsiz qarorlar qabul qilinishi natijasida xalq orasida qonuniy norozilik

kuchaygan. Fuqarolarning adolat izlab turli ma'muriy idoralarga yuborgan shikoyatlari, iltimosnoma va arznomalari manbalarda keng aks etgan bo'lsa-da, ularning katta qismi yillar davomida javobsiz qolgan. Bu esa chor ma'muriyatining mahalliy aholi manfaatlarini bilan hisoblashmaganini, saylov tizimi orqali amalga oshirilayotgan tartib-qoidalarning faqat tashkiliy ko'rinishdagina "qonuniy" bo'lib, amalda mustamlakachilik maqsadlariga xizmat qilganini yaqqol isbotlaydi.

Xalq noroziligi va shikoyatlariga qaramasdan, imperiya hukumati tomonidan o'rnatilgan tartib qayta-qayta takrorlanib, qozilarni tayinlashda sadoqat mezonini asosiy o'lchov sifatida saqlanib qoldi. Buning ortidagi asosiy maqsad — an'anaviy qozilik tizimini yangi, kolonial boshqaruv tizimiga moslashtirish, mahalliy huquqiy institutni siyosiy nazorat vositasiga aylantirish va uni mustamlakachilik siyosati manfaatlariga xizmat qildirish edi.

Shu tariqa, qozilar saylovi formal jihatdan demokratik jarayon kabi ko'ringani bilan, amalda Rossiya imperiyasining Turkistondagi siyosiy-ma'muriy hukmronligini mustahkamlash, aholi ustidan bilvosita nazorat o'rnatish va an'anaviy sud tizimini kolonial tuzumga integratsiya qilish vositasiga aylangani qayd etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг сайловга оид қонун ҳужжатлари тўплами. Т., "Ўзбекистон", 2019 й.
2. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov, S.Xoshimov, O'Ubaydullayev. Vatan tarixi (XVI–XX asr boshlari). "Sharq", 2016.
3. S.Tillaboyev, A.Zamonov. O'zbekiston tarixi. "Sharq", T., 2014.
4. В.В. Бартольд. История культурной жизни Туркестана. Ленинград. Издательство академии наук СССР.
5. ЎЗРМДА И-18-фонд, 1-рўйхат, 1800-иш.
6. ЎЗРМДА И-13-фонд, 1-рўйхат, 334-иш.